




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

Sharof Rashidov nomidagi
SAMARAQAND DAVLAT
UNIVERSITETI



Ro'yxatga olindi:

№ BD-60530400

2022 yil 08 30.

“TASDIQLAYMAN”

Samaraqand rektori:

R.I.Xalmuradov

2022 yil 08 30

IQTISODIY VA IJTIMOIV GEOGRAFIYA ASOSLARI
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	500 000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta'lim sohasi:	530 000- Fizikaga oid fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60530400 – Geografiya

Fan/modul kodi IGG1106		O'quv yili 2022-2023	Semestr 1	ECTS – Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 5	
1.	Fan nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami (soat)
	Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari		74	106	180
2.	<p>I. Fanning mazmuni. Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi bo'yicha kompleks bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir. Fanning vazifasi – talabalarga iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi bo'yicha tushuncha, kategoriya, fan tarkibi, aholisi, xo'jalikni tarmoqlar tarkibi, hududiy tashkil etilishi va rivojlanish qonuniyatlarini o'rgatishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi:</p> <p>- Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya o'rganish predmeti, boshqa fanlar bilan aloqadorligi, iqtisodiy va ijtimoiy geografik tushunchalar, fanning fundamental tushunchalari, hududiy ishlab chiqarish majmualarini; aholi manzilgohlari, shaharlar tushunchasi, iqtisodiyotning hududiy tarkibi va iqtisodiy rayonlashtirish; iqtisodiy-ijtimoiy geografik tadqiqot usullari hamda zamonaviy geografik axborot tizimlarini bilishi va ulardan foydalana olishi kerak. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tarmoqlar tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tarixi; tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy xaritalarini loyihalash hamda ko'nikmalarni shakllantirish <i>haqidagi bilimlarga ega bo'lish kerak</i></p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Kirish. Iqtisodiy geografiya fanining hozirgi - zamon mazmuni va vazifalari</p> <p>Fanning ob'ekti, predmeti, uni o'qitishning maqsad va vazifalari. Turli mamlakat va rayonlarda aholi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini hududiy tashkil etish haqida. Mutaxassislik fani-iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaning ta'rifi. Hududiy iqtisodiy-ijtimoiy majmualar haqida tushuncha. Jamiyat hayoti va taraqqiyotida fanning tutgan o'rni va roli, iqtisodiy-geograf mutaxassislarning vazifalari. Fanning asosiy tamoyillari: hududiylik, komplekslik, tarixiylik, demotsentrizm va ekologik tamoyillar. Mutaxassislikka kirish fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.</p> <p>2-mavzu. Iqtisodiy geografiyaning tarixiy shakllanishi</p> <p>«Iqtisodiy geografiya» atamasi va uning fan sifatida shakllanishi, statistikaning iqtisodiy geografiya fanining vujudga kelishiga ta'siri. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish g'oyalari, harbiy geografiya, iqtisodiy geografiya fanining frontal rivojlanishi, fanning tarkibiy tuzilishi. Uning iqtisodiy va sotsial, ijtimoiy geografiya shaklini olishi.</p>				

3-mavzu. Fanning tadqiqot usullari

Tadqiqot usuli xaqida umumiy tushuncha. Kartografik, geografik taqqoslash, statistik va tarixiy metodlarning iqtisodiy geograflar uchun ahamiyati. Kuzatuv, modellashtirish, anketa-so'rov, ekstrapolyasiya, tizim-tarkib usullari, ularning iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni o'rganishdagi roli.

4-mavzu. Iqtisodiy geografiyaning asosiy tushunchalari

Rayon - iqtisodiy geografiya va umuman geografiya fanining bosh tushunchasi, uning pog'onasimonligi, real geografik va ma'muriy boshqaruv rayonlari. Hududiy mehnat taqsimoti-iqtisodiy geografiyaning asosiy, fundamental tushunchasi; iqtisodiy rayonlar, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy majmualar. Geografik o'rin tushunchasi. Uning turlari.

5-mavzu. Ishlab chiqarishni tashkil etishning ijtimoiy shakllari

Ishlab chiqarishni tarmoqlar (ijtimoiy) va hududiy tashkil etilishi. Konsentratsiya (mujassamlashuv) va uning turli sohalarda ko'rinishi. Ixtisoslashuv va uning asosiy shakllari. Kooperatsiya (hamkorlik) va kombinatlashtirish. Mujassamlashuv, ixtisoslashuv, kooperatsiya va kombinatlashuvning bozor iqtisodiyoti sharoitida amalga oshirish xususiyatlari.

6-mavzu. Ishlab chiqarish tarmoqlari xaqida tushuncha

Xo'jalik tarmoqlari: sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari, maorif va madaniyat, fan, san'at, boshqaruv va x.k. Ularning hududiy tashkil etilishi. Sanoat tarmoqlari va ularni ajratish tamoyillari. Qishloq xo'jaligi va uning ichki tarmoqlari, hududiy tashkil etish masalalari. Transport, uning turlari va xo'jalik tizimidagi o'rni.

7-mavzu. Ishlab chiqarishni joylashtirishning asosiy omillari

Xom-ashyo, yoqilg'i va elektroenergetika, mehnat resurslari, iste'mol omillari. Transport, iqtisodiy geografik o'rin, infratuzilma, er-suv, ekologiya va boshqa omillarning ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishga ta'siri. Bozor iqtisodiyoti va ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirish. Tabiiy resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy geografiya.

8-mavzu. Hududiy mehnat taqsimoti

Hududiy (geografik) mehnat taqsimoti bilan munosabati. Hududiy mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv mehnat taqsimotining hududiy darajalari. A. Smit va D. Rikordolarning xalqaro mehnat taqsimoti bo'yicha nazariy fikrlari. Merkantelizm va fritredizm. Sobiq Ittifoq parchalanishi va hududiy mehnat taqsimotida yuzaga kelgan muammolar. O'zbekistonda hududiy mehnat taqsimotini rivojlantirish masalalari. Xalqaro, davlatlararo, mamlakat doirasidagi va quyi darajadagi hududiy mehnat taqsimotlari. Hududiy mehnat taqsimoti va yagona iqtisodiy makon (bozor)ning shakllanishi. Xalqaro miqyosda hududiy mehnat taqsimotining o'zgarib borishi, rivojlangan

mamlakatlardan rivojlanayotgan davlatlarga ba'zi ishlab chiqarish tarmoqlarini «ko'chishi». Industriyagacha, industrial va postindustrial davlatlar. Kondratyev «uzun to'lqinlari».

9-mavzu. Iqtisodiy rayonlashtirish

Iqtisodiy rayonlashtirish iqtisodiy geografiyaning asosi ekanligi. Iqtisodiy rayonlashtirishning tamoyil va omillari. Hududiy mehnat taqsimoti va iqtisodiy rayonlashtirish. Rayon hosil qiluvchi va rayonga xizmat qiluvchi tarmoqlar. A.Lyoshning «iqtisodiy landshaftlari». Sobiq Ittifoq davrida iqtisodiy rayonlashtirish. O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni va mustaqillik davrida yuzaga kelgan muammolar. N.N.Kolosovskiy, N.N.Baranskiy, Z.M. Akramovning iqtisodiy rayonlashtirish bo'yicha nazariy qarashlari. Ijtimoiy rayonlashtirishning hozirgi davrdagi mohiyati va maqsadi. O'zbekistonni iqtisodiy rayonlashtirish muammolari. Asosiy va ma'muriy-iqtisodiy rayonlar. Iqtisodiy rayonlashtirish va mintaqaviy siyosat.

10-mavzu. Hududiy majmualarni shakllanishi va rivojlanishining asosiy muammolari

Hududiy majmualar iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining muxim tushunchasi ekanligi. N.N.Kolosovskiyning hududiy ishlab chiqarish majmualari haqidagi ta'limoti. Hududiy ishlab chiqarish majmualari va iqtisodiy rayonlashtirish; XICHM lar va iqtisodiy geografik samaradorlik. Infrastruktura tushunchasi va uning XICHMlardagi ahamiyati. Iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarida hududiy majmualar. Sotium haqida tushuncha. Axoliga xizmat ko'rsatish sohalarini tashkil etishda hududiy majmualar. Jaxon siyosiy xaritasi va hududiy-siyosiy, xarbiy tuzilmalar. Hududiy majmualar va hududiy tizimlar. Hududiy tarkib va uning hududiy majmua hamda hududiy tizimlar bilan aloqasi. I.M.Maergoyzning hududiy tarkibi to'g'risidagi nazariy fikrlari. Hududiy tarkib, tizimi va hududiy boshqaruv muammolari.

11-mavzu. Iqtisodiy geografik o'rin

Mamlakat va Shaharlarning iqtisodiy geografik o'rni. N.N.Baranskiy, G.M.Lappo, I.M.Maergoyz iqtisodiy geografik o'rin haqida. Tabiiy geografik o'rinning iqtisodiy va siyosiy geografik mazmuni. Iqtisodiy geografik o'rinning tarixiyliigi, uning qismlari va darajalari. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy geografik va siyosiy geografik o'rini yaxshilash muammolari. Chekkada va markazda, dengiz hamda okean bo'yida yoki quruqlik o'rtasida, joylashishning iqtisodiy va siyosiy mazmuni. Iqtisodiy geografik o'rinning o'zgarib borishi. Buyuk Ipak Yo'lining tiklanishi va O'zbekiston iqtisodiy geografik o'rini yaxshilanishi. Iqtisodiy geografik o'rinning metodik ahamiyati, uning Shahar, mintaqa yoki xo'jaligi tarkibi va yo'nalishini taxlil qilishda usul sifatida xizmat qilishi. Qoraqalpog'iston Respublikasida mintaqa xo'jaligining ixtisoslashuviga iqtisodiy geografik o'rin ta'sirini ochib berish.

12-mavzu. Aholi geografiyasi va geodemografiya

Aholi geografiyasi iqtisodiy geografiyaning muhim va alohida tarmog'i. Aholi geografiyasining muhim tushunchalari. Aholi soni, uning tadrijiy o'zgarishi, tarkibi va joylashuvidagi farqlar, ularni vujudga keltiradigan

qonuniyatlar, aholi punktlarining hududiy tizimlari va ularning rivojlanish qonuni. Dunyo aholisining tabiiy harakti va migratsiyasi. Dunyo aholisining diniy va milliy tarkibi. Aholi ro'yhatlari. Zichlik va uni aniqlash usullari. Umumiy va "sof" zichlik. Zichlik va hudud imkoniyatlaridan foydalanish. Joyning demografik sig'imi. Aholining yosh kategoriyalarga bo'linishi. Yoshlar bo'yicha aholining "piramidal" tarkibi. Aholi tarkibining "qarib" va "yosharib" borishi. Respublika aholisining milliy tarkibi va undagi o'zgarishlar sabablari.

13-mavzu. Shaharlar rivojlanishi va urbanizatsiya

SHaharlar geografiyasi iqtisodiy va sotsial geografiyaning eng faol va etakchi tarmog'i. SHaharlar geografiyasini o'rganishdagi bosqichlar. SHaharlarning funksiyalari. Aholi sonining shahar va qishloq joylarida o'sish xususiyatlari. Urbanizatsiya jarayoni va uning "sharqona" ko'rinishi. SHaharlar va shahar aglomeratsiyalari. Qishloq aholi punktlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Qishloq joylarda ijtimoiy infrastruktura tizimi.

14-mavzu. Ijtimoiy geografiya

Ijtimoiy geografiyaning tadqiqot obekti, tuzilishi, shakllanish tarixi, fanlar tizimida tutgan o'rni. Ijtimoiy geografiyaning mustaqil fan tarmog'i sifatida shakllanish jarayonlari. Ijtimoiy geografiyaning muhim vazifalari va muammolari. Sotsial geografiyaga oid tadqiqotlar. Ijtimoiy geografiyaning tarmoqlari. Siyosiy geografiya, uningob'ekti va predmeti. Siyosiy geografiyaning ijtimoiy va iqtisodiy geografiya fanlari tizimidagi o'rni va boshqa fanlar bilan aloqasi. Ta'lim geografiyasi, O'zbekistonda ta'lim tizimi. Ayrim xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimi.

15-mavzu. Tarmoqlar geografiyasi (Sanoat va qishloq xo'jaligi, transport geografiyasi)

Sanoat va qishloq xo'jaligi geografiyasi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tarmog'i sifatida. Fanning tadqiqot obekti, predmeti, vazifalari. Sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlari haqida tushuncha, ularning klassifikatsiyasi. Ishlab chiqarishni joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar. Sanoatni hududiy tashkil etish shakllari. Qishloq xo'jaligi geografiyasi. Jahon sanoati va qishloq xo'jaligining rivojlanishi. Transport turlari haqida tushuncha. O'zbekistonda rivojlangan transport turlari. TRASEKA proekti. O'zbekiston milliy iqtisodiyotida avtomobil transportining tutgan o'rni. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari. Mustaqillik davrida respublika eksporti va importidagi o'zgarishlar. Mustaqillik yillarida barpo etilgan qo'shma korxonalar.

III. Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya asoslari fanidan amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

L: Jahon aholisining tarixiy davrlarda o'sish dinamikasini tahlil qilish.

2. Jahon aholisining tarixiy davrlarda o'sish
3. Jahon aholisining o'sishini hududiy xususiyatlari
4. Jahon aholisining joylashuvi
5. O'zbekiston aholi zichligini yozuvsiz xaritaga tushirish.
6. O'zbekiston qishloq va shahar aholisi sonining o'sishini aniqlash.
7. Statistik ma'lumotlar asosida jahon aholisi migrasiyasini tahlil qilish.
8. Jahon davlatlarining qazilma boyliklar bilan ta'minlanishi jadvalini tuzish.
9. Urbanizasiya darajasi va uning o'zgarishini jadal mintaq va ayrim mamlakatlar bo'yicha taqqoslash.
10. O'zbekiston foydali qazilmalari haritasini tuzish
11. SHaharlar zichligini aniqlash
12. Jadval asosida davlatlarning yalpi ichki mahsulotini aniqlash va tahlil qilish
13. Ayrim davlatlarning jahon sanoat mahsuloti ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini aniqlash
14. Dengizbo'yi va quruqlik davlatlarining tabiiy, ijtimoiy va siyosiy geografik o'rniga baho berish
15. Sanoat korxonalarini joylashuviga ta'sir etuvchi omillar jadvalini tahlil qilish
16. Davlatlarning transport tarmoqlari turlaridan foydalanishini tahlil qilish
17. Qishloq xo'jaligi haritasini chizish va tahlil qilish
18. O'zbekistonda sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o'sishi diagrammasini ishlash
19. Qishloq xo'jaligi kartasidan foydalanib, jahonda qishloq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha hududlarning ixtisoslashuvini aniqlash
20. Davlatlarni boshqaruv shakliga ko'ra tasniflash

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:


21. Iqtisodiy geografiya fanining vujudga kelishi.
22. Fanning asosiy tamoyillari.
23. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tadqiqot usullari
24. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning shakllari
25. Iqtisodiy geografiyaning bosh tushunchalari: geografik o'rin, iqtisodiy rayon, hududiy majmualar va boshqalar
26. Ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy omillari
27. Tabiat va jamiyatning o'zaro munosabatlarida iqtisodiy geografiya fanining roli
28. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning xo'jalik tarmoqlarini rivojlantirishga ta'siri
29. O'zbekistonda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishda iqtisodiy geografik bilimlarning roli
30. Tabiatdan foydalanish va atrof muhit muhofazasi
31. Jahon davlatlarining iqtisodiy va siyosiy geografik o'rni
32. Jahon sanoati va qishloq xo'jaligi

	<p>33. Geografik mehnat taqsimoti va jahon xo'jaligi</p> <p>34. Global muammolar</p> <p>35. Jahondagi demografik vaziyat va uning mintaqaviy xususiyatlari.</p> <p>36. Jahon mamlakatlari va ularning shakllanishi</p>
3.	<p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <p>Talabalar «Iqtisodiy geografiyaga kirish» fanini o'rganish jarayonida quyidagilarni bajara olishi lozim:</p> <p>“Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - fanning asosiy manbalari, g'oya, tushuncha, nazariya va qonuniyatlar haqida bilimlarni <i>bilishi kerak</i>; - voqea va hodisalarni joylashish xususiyatlarini asoslab berish va hayot bilan bog'lay olish, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish, mustaqil va zamonaviy fikrlash va o'z fikrini aniq namoyon eta olish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>; - fanga oid statistik ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil qilish xamda tegishli xulosalar chiqarish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; <i>interfaol, keys stadi, munozara</i> • <i>interfaol keys-stadilar</i>; • <i>diologik yondoshuv</i> • <i>SWOT tahlili</i> • <i>Wenn diagrammasi</i> • <i>Bliz so'rov</i> • <i>nilufar guli</i> • <i>baliq skleti</i> • kim chaqqon • <i>blis so'rov</i> • <i>blis test va boshqalar</i>
5.	<p>VII. Kreditni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Soliev A.S., Maxamadaliyev R. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. – T. 2005 . 2. Шарыгин М.Д., Столбов В.А. Введение в экономическую и социальную географию. -М., 2017. 3. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya. Toshkent, 2004. 4. Максаковский В.П. Географическая картина мира. 1.2-част. М., 2002 6. Soliev A. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. T., 2005

	<p>Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <p>1. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya. –T., 2004.</p> <p>2. Алаев Е.Б. Социально-экономическая география. Понятино-терминологический словарь. - М., 1980.</p> <p>3. Асанов Г.Р. Социал-иктисодий география: термин ва тушунчалар изохли лугати –Т., 1990.</p> <p>4. Soliev A., Qarshiboeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari.-T., 1999.</p> <p>7. Soliev A., Nazarov M., Qurbonov SH. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.- T., 2010.</p> <p>8. Tashtaeva S. Mutaxassislikka kirish. T., 2011.</p> <p>9. Солиев А.С., Назаров М.И., Курбонов Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудлари ижтимоий-иктисодий ривожланиши. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.</p> <p>Axborot manbalari (saytlar):</p> <p>www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.</p> <p>www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari portali</p> <p>www.ziynet.uz -O'zbekiston Respublikasi ta'lim portali</p> <p>www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi portali</p>
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2022 yil “ ” dagi « »-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: M.R.Usmanov – SamDU, “Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya” kafedrasida geografiya fanlari nomzodi, dotsent.
9.	Taqrizchilar: M.A.Kadirov – SamDU, “Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya” kafedrasida dotsenti, geografiya fanlari nomzodi (ichki). N.Ibodullayev – SamISI, Turizm kafedrasida dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi (tashqi).

Fan dasturi Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasining 2022 yil “29” avgustdagi №1-son yigilishida muhokamadan o'tgan va fakultet Kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.


Kafedra mudiri



dots. M.R. Usmonov

Fan dasturi fakul'tet o'quv-uslubiy kengashining 2022 yil "30" avgustdagi №1-son yigilishida muhokamadan o'tgan va fakul'tet Kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Fakul'tet uslubiy kengashi raisi:



dots. B.Fayzullayev

Fan dasturi Geografiya va ekologiya fakul'teti Kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2022 yil "30" avgustdagi № 1-sonli bayonnoma)


Fakul'tet dekani



dots. A.X.Ravshanov


Mutaxassislik fanlari bo'yicha fan dasturi sillabuslarni xorij tajribasini o'rgangan holda transformatsiya qilish bo'yicha ishchi guruh:

Rais: M.E.Mo'minov



imzo


a'zo: B.Sh.Safarov



imzo


Kelishildi:

O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i



dots. Sh.Muranov

O'quvishlari bo'yicha provoktori



prof. A.Soleev

